

шахсларига тиббий хизмат кўрсатишни яхши- берувчилар рақобатини кучайтиришни кўзда
лаш; учинчидан, монополияларнинг иқтисодий тутати.
хукмронлигини чеклаш ва ишчи кучи учун иш

Манба ва фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 декабрдаги “Олий Мажлисга Мурожаатномаси.”// www.president.uz.
2. Галкин А.И. Основные направления повышения эффективности и результативности деятельности органов государственной власти в Российской Федерации./ Актуальные проблемы и перспективы развития государственного управления: сб.науч. статей по материалам ежегодной науч.-прак. Конф. От 23 ноября 2013 г. /под ред. С.Е.Прокофьева, О.В.Паниной, С.Г. Еремина. – М.: Юстицинформ, 2014.
3. Lee, Young-Min & Oh, Ji-Hyun. (2015). Policy Implications for Reforming Public Employment Center: How Can Service Performance Be Improved?. *International Journal of u- and e- Service, Science and Technology*. 8. 173-184. 10.14257/ijunesst.2015.8.9.19.
4. Berveno, O. & Yurchenko, L.. (2020). The Main Directions of the Employment Promotion Policy in the Conditions of Economy Digitalization. *THE PROBLEMS OF ECONOMY*. 4. 351-356. 10.32983/2222-0712-2020-4-351-356.
5. Baglioni, Simone & Sinclair, Stephen. (2018). Social innovation and employment. 10.1332/policypress/9781447320104.003.0005.
6. Шубцова Л.В. Государственное антикризисное управление: системный подход./Национальные интересы: приоритеты и безопасность. 2011. №5. С.11-19.
7. Losheniuk, Oksana. (2017). Improving the tools of the state migration policy in Ukraine. *world of finance*. 147-156. 10.35774/sf2017.03.147.
8. Blaug, M. & Office, Geneva. (2022). Employment and unemployment in Ethiopia - Report of the Exploratory Employment Policy Mission. XF2006171644.
9. Фан Т., Хансен Э., Прейс Д. Государственная служба занятости в условиях меняющегося рынка труда. Женева: Международное бюро труда, 2001. 228с. с.103.
10. Junaid, Sana & Mutschler, Christina & McShane, Kelly. (2022). The Impact of COVID-19 on Clubhouse Employment Programs. *Community Mental Health Journal*. 1-8. 10.1007/s10597-022-01036-3.
11. Пудич В. Проблема системности менеджмента в России. //Менеджмент сегодня. 2003. №2. С.43-55.
12. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 20 октябрдаги ЎРҚ-642-сонли “Аҳоли бандлиги тўғрисида”ги қонунининг 2-боби, 6-моддаси.
13. Буторин А.М.Направления совершенствования регулирования занятости населения в регионе//Вестник экономической интеграции. 2010.№5. - С.137-141.



O‘ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI

Bahriddinova Muazzam Azam qizi -
TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari” ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti

https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss6/a30

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekistondagi migratsiya jarayonlari va ularning hududlarda rivojlanishining asosiy sabablari yoritilgan. Shuningdek, globallashtirish sharoitida dunyo miqyosida tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etishi haqida ham so‘z borgan. Ayniqsa, har qanday mamlakat xavfsizligi va barqarorligini ta‘minlashda, eng avvalo, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni mustahkamlash masalalari borasida jiddiy izlanishlar talab qilinadi. Bu esa mamlakatda yoshlarning vatanparvarlik fazilatini tarbiyalashda, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni yanada takomillashtirish orqali xavfsizlikni ta‘minlashda istiqboldagi maqsadlarga erishuvga zamin yaratadi.

Kalit so‘zlar: migratsiya, xalqaro migratsiya, ekologik omil, rasmiy migratsiya, norasmiy migratsiya, mehnat resurslari, mehnat bozori, emmigrant, immigrant, mehnat migranti.

РЕГИОНАЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА МИГРАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Бахриддинова Муаззам Азам кизи -
«Экономика Узбекистана Научные основы и проблемы развития» аспирант исследовательского центра

Аннотация. В данной статье описаны миграционные процессы в Узбекистане и основные причины их развития в регионах. Также было сказано, что в условиях глобализации важно обеспечить мир, безопасность и стабильность в глобальном масштабе. В частности, для обеспечения безопасности и стабильности любой страны в первую очередь требуются серьезные исследования по вопросам укрепления идеологического иммунитета от внутренних и внешних угроз. Это создает основу для достижения перспективных целей в воспитании патриотических качеств молодежи страны, а также в обеспечении безопасности за счет дальнейшего совершенствования духовно-воспитательной работы.

Ключевые слова: миграция, международная миграция, экологический фактор, формальная миграция, неформальная миграция, трудовые ресурсы, рынок труда, эмигрант, иммигрант, трудовой мигрант.

Bahriddinova Muazzam Azam qizi -

Research center «Scientific bases and issues of development of Uzbekistan economy» under the TSUE

Annotation. *This article describes the migration processes in Uzbekistan and the main reasons for their development in the regions. It was also said that in the conditions of globalization, it is important to ensure peace, security and stability on a global scale. In particular, in order to ensure the security and stability of any country, first of all, serious research is required on issues of strengthening ideological immunity against internal and external threats. This creates a foundation for the achievement of future goals in the education of the patriotic virtue of youth in the country, as well as in ensuring security through the further improvement of spiritual and educational work.*

Keywords: *migration, international migration, environmental factor, formal migration, informal migration, labor resources, labor market, emigrant, immigrant, labor migrant.*

Kirish. Mehnat migratsiyasining kelib chiqish sabablari va o'z navbatida, uning mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy va salbiy ta'sirlari bilan bog'liq bo'ladi. Migratsiya omillari deganda mehnat resursining bir joydan ikkinchi joyga o'tishi uchun sabab bo'ladigan obyektiv va subektiv shart-sharoitlar tushuniladi.

Mehnat migratsiyasida mehnat resurslarining harakatchanligi mezoni ham hisobga olinadi. Mehnat resursi harakatchanligi mehnatga layoqatli aholining muayyan turdagi mehnat faoliyatini muayyan joyda bajarishga qodirligi va tayyorligi bilan belgilanadi. Uning ijtimoiy-kasbiy va hududiy xususiyatlari mavjuddir.

Mehnat migratsiyasini samarali tashkil etish aholi bandlik darajasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu ishlarni amalga oshirishda quyidagi yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi:

Tashkiliy-huquqiy:

- O'zbekiston Respublikasining "Mehnat migratsiyasi to'g'risida"gi qonunini ishlab chiqish;
- tumanlardagi bandlikka ko'maklashish markazlari tasarrufida mehnat migratsiyasi masalalari bilan shug'ullanuvchi maxsus bo'lim tashkil qilish;
- mehnat resurslari taqchil hududlarda keng tarmoqli ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaratish;
- mehnat faoliyatini amalga oshirish maqsadida boshqa hududga ko'chayotgan fuqarolarning huquqiy va ijtimoiy muhofazasini belgilangan tartibda ta'minlash;
- migrantlarini aniq axborotlar bilan ta'minlash uchun tegishli bepul xizmat ko'rsatish;
- mehnat migratsiyasini hisobga oladigan yagona elektron avtomatlashtirilgan tizimni yaratish h.k.

Iqtisodiy:

- boshqa hududlardan mehnat resurslari bilan kam ta'minlangan tumanlarga ko'chib keluvchilar ish haqiga maxsus ustamalar berish;
- yashash bilan bog'liq sarf-xarajatlari uchun oylik pul kompensatsiyasi to'lash;
- chekka tumanlarda bo'shab qolgan va egasiz uy-joylarni boshqa hududlardan ixtiyoriy ravishda ko'chib keladigan muhtoj oilalarga tekin berish va

ushbu uy joyini shaxsiy mulki sifatida rasmiylashtirib berish;

- qishloq fuqarolar yig'inlari ko'chib ketuvchi va keluvchi oilalarga tadbirkorlik bilan shug'ullanishlari uchun tijorat banklaridan imtiyozli kreditlar olishlarida amaliy yordam ko'rsatish;

- mehnat migratsiyasi bilan kam ta'minlangan hududlarda sanoat va xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yurituvchi yangi tashkil etiladigan tadbirkorlik subyektlarini barcha turdagi soliqlar va majburiy to'lovlardan ozod qilish;

- mehnat migrantlarining farzandlari uchun maktabgacha ta'lim muassasalari, bolalarni o'qitish uchun ota-onalarning oylik to'lovidan 1 yilgacha ozod qilish va h.k.

Ijtimoiy:

- har bir mahallalarda mehnat resurslari kam ta'minlangan hududlardagi bo'sh ish o'rinlari, ish xarakteri, maosh, ishchilardan talab etiladigan malakalar haqida ma'lumotlarni to'plab borish va e'lon qilish;

- ko'chib keluvchi oilalarni yotoq joylar bilan ta'minlash;

- mahalla fuqarolar yig'inlari tomonidan ichki mehnat migrantlarining yangi yashash joyiga tezda moslashishiga amaliy yordam ko'rsatish;

- mehnat migrantlarining oila a'zolariga zarur tibbiy yordamlarni ko'rsatish;

- migrantlar farzandlarining ta'lim olishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish va h.k.

Ichki migratsiya muammosini hal etish tashqi mehnat migratsiyasini kamayishiga olib keladi. Tashqi mehnat migratsiyasi jarayonida ko'p uchraydigan muammolardan biri bu migrantlarning huquqlarini buzilishi, odam savdosi va diskriminatsiya holatlaridir. Shuningdek, migrantlarning, ayniqsa, norasmiy ravishda faoliyat olib borayotgan mehnat migrantlarining transport vositalarida xorijga chiqishlari yoki uyga qaytishlarida ularning shaxsiy xavfsizligi ta'minlanmaganligi ham bugungi kunda eng muammoli masalalardan biri hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hozirgi vaqtga kelib, dunyoning deyarli barcha mamlakatlari olimlar va mutaxassislar tomonidan migratsiya, uning tarkibi, u bilan bog'liq demografik jarayonlarni

o'ziga xos xususiyatlari o'rganilmoqda. Migratsiya jarayoni, shakllanishi va rivojlanishi hamda unga ta'sir etuvchi ijtimoiy-demografik omillar iqtisodchi olimlar va mutaxassislar tomonidan o'zlarining tadqiqotlarida fikr va muhozalarini keltirib o'tishgan. Ular tomonidan migratsiya va uning iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarga ta'siri, mamlakat iqtisodiyotida tutgan o'rni va ularning salbiy va ijobiy jihatlarini o'z davrlaridagi mavjud holatlar bo'yicha ko'rsatib o'tishgan. Demografik jarayonlarni o'rganib chiqqan ba'zi olimlar migratsiya harakatini "Aholining joylashish xususiyatini, zichligini, mavsumiy va mayatnik harakatchanligini pirovard natijada belgilaydigan aholining barcha hududiy harakatlari yig'indisi" deb hisoblaydilar [8].

D.I. Valenteya fikricha "Migratsiya aholi soni, tarkibi, joylashuvi va sifati dinamikasining tendensiyalarini saqlab qolishni yoki o'zgartirishni nazarda tutuvchi aniq maqsadga yo'naltirilgan faoliyat turi va u demografik vaziyatga bevosita ta'sir o'tkazadi" [3].

Jahon hamjamiyatida mashhur bo'lgan demograf A. Sovining shunday ta'kidlagan: "Migratsiya - o'z oldiga faqat birgina aholining sonini o'zgartirishdan-da kengroq vazifalarni qo'yishi va bir qarashda demografiyadan uzoq bo'lib ko'rinishi mumkin bo'lgan sohalarni ham qamrab olishi mumkin" [4].

Ko'p tilli demografik lug'atning asosida ham o'sha fikr yotadi, unda "migratsiya, bir tomondan, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa omillarning, ikkinchi tomondan, demografik jarayonlar va ular oqibatlarining o'zaro bog'liqligini aniqlash" sifatida ta'riflangan [5].

"Obshaya teoriya naseleniya" kitobida "Migratsion jarayonlar demografik vaziyatning asosiy qismi bo'lib, jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlari va turli davlatlarda o'ziga xos xususiyatlarga, yo'nalishlarga egadir" degan fikrni ta'kidlagan [6].

A.Ya. Kvashi "Sovremennaya demografiya" asarida "Ba'zi aholi qatlamlarining turmush sharoitlarini yaxshilashga migratsiya ham ta'sir etadi" degan fikrni ilgari suradi [7].

Yuqorida bayon etilganlarni umumlashtirgan holda, aytish joizki, barcha ta'riflarda davlatning, demografik omillarni nazarda tutgan holda, optimal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish chora-tadbirlari (tartibga solish vositalari) tizimini qo'llash yo'li bilan aniq maqsadga yo'naltirilgan, boshqaruvchi ta'siri zarurligi muhim hisoblanadi. Migratsiya jarayonlari nuqtayi nazaridan davlat tomonidan tartibga solish, bizning fikrimizcha, demografik rivojlanishning barcha kichik tizimlari (tug'ilish miqdori, o'lim soni) normal ishlashi uchun eng qulay sharoitlarni yaratish bilan bog'liq bo'lishi kerak. Shu bilan birga bozor islohotlari sharoitida migratsiya jarayonlarining rivojlanishi uchun ijtimoiy-iqtisodiy tartibga soluvchi omillarning ahamiyati ortadi.

Shunday qilib, jahon tajribasidan kelib chiqib va iqtisodchi olimlarning yuqorida keltirilgan ta'rif-

larini umumlashtirgan holda, migratsiya jarayonlarini davlat tomonidan tartibga solish qonunchilik, iqtisodiy va tashkiliy-xo'jalik mexanizmlarini uyg'unlashtirish orqali demografik jarayonlarga (demografik vaziyat sifatiga) davlat tomonidan ta'sir etish usullari va chora-tadbirlari tizimi tushuniladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid adabiyotlar tahlil qilindi. Statistik ma'lumotlarni tahlil qilib, hududlar kesimida o'zaro taqqoslash usulidan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining ma'lumotlariga ko'ra 2021 yil boshida 1,5 milliondan ortiq fuqarolar xorijiy davlatlarda mehnat qilganlar, bu jami iqtisodiy faol aholining 7,8 foizini tashkil etadi [10]. Bunday holat mehnat migratsiyasi masalalariga davlat darajasida yanada jiddiyroq e'tibor qaratish, uni tartibga solish bo'yicha mavjud mexanizmlarni doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab qiladi. Ushbu muhim vazifalarni - migratsiyasining omillari, yo'nalishlari va natijalari hamda unda ishtirok etayotgan mehnat resurslari bo'yicha aniq ma'lumotlarga ega bo'lmasdan hal etishning imkoni mavjud emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3001-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Mehnat organlari faoliyatini yanada takomillashtirish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi"da Xalqaro Mehnat Tashkilotining mehnat migrantlari to'g'risidagi 97-sonli Konvensiyasini ratifikatsiya qilish imkoniyatlarini o'rganib chiqish belgilangan [7,2]. Ushbu Konvensiyada migrantlarning mehnat faoliyati, ularning mol-mulki va oilaviy migratsiya bilan bog'liq bo'lgan barcha jihatlar qamrab olingan.

O'zbekistonning mustaqil davlat sifatida dunyo mamlakatlari bilan xalqaro iqtisodiy munosabatlar o'rnatishi o'z o'rnida jahon mehnat bozorida ham faol bo'lishni taqozo etadi. Shu sababli ham mamlakatimizdagi migratsiya jarayonlarni o'rganmoq, uning hududiy tarqalishini tadqiq qilmoq maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda migratsiya jarayonlari bir qator sabablar bilan bog'liq. Tashqi migratsiya uchun ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillarning, respublika ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Mamlakatdagi migratsiya jarayonlarining, eng ayniqsa tashqi migratsiyaning keskin o'zgarishiga, immigrantlar salmog'ining emigrantlarga qaraganda past tendensiyasiga ega ekanligiga sabab bo'luvchi eng katta omil - bu siyosiy mustaqillikka erishishidir. Sobiq Ittifoqning qulashi iqtisodiy va ijtimoiy sohalarida ayrim tub burilishlar yasadi. Ishlab chiqarishning pasayishi, inflatsiya darajasining o'sishi, ishsizlikning oshishi, aholining turmush darajasining pasayishi kabi bir qator muammolarga olib keldi. Boshqa MDH mamlakatlari singari O'zbe-

kistonda aholining ma'lum bir qismi turmush sharoitini yaxshilash maqsadida mehnat migranti sifatida boshqa mamlakatlarga ketishga majbur bo'lishgan.

Aynan mehnat migrantlarining hududiy tarqalishini o'rganar ekanmiz, uni tadqiq etishdagi dolzarb masala shundaki, aholining mamlakatimiz bo'ylab nihoyatda notekis taqsimlanishidir. Aholi soni yuqori, tug'ilish darajasi baland hamda aholi zich hududlarda migratsiya jarayonlari jadal kechadi. K. Kalanovning izohiga ko'ra, O'zbekiston fuqarolarining uzoq xorijiy mamlakatlarga tashqi migratsiyasi:

- Rasmiy doimiy emmigratsiya;
- Rasmiy vaqtinchalik emmigratsiya;
- Norasmiy emmigratsiya;
- Ekologik emmigratsiya;
- Intellektual immigratsiya shaklida namoyon bo'ladi[1].

O'zbekiston fuqarolarining MDH davlatlariga migratsiyasi (gasterbayterlar va yollanma ishchilar); doimiy rasmiy migratsiya (fuqarolikni olish); vaqtinchalik etnik migratsiya (etnik vatanga borib ishlash); intellektual migratsiya (tadqiqotchilar, olimlar, talabalar va xk.)[1].


Yuqoridagi omillardan kelib chiqqan holda shuni alohida ta'kidlash lozimki, chet mamlakatlarga ketayotgan fuqarolarimizning asosiy qismi yollanib ishlash uchun, xalq tili bilan aytganda "tirikchilik" o'tkazish uchun moddiy mablag' orttirish maqsadida migratsiyani amalga oshirmoqda. Qolgan qismi esa bilim va malakasini oshirish, rusiyzabon aholining katta qismi esa tarixiy vatanlariga doimiy yashash uchun ketishmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda aholining ishsizlik darajasi 2000-2004 yillarda 0,4%

ni tashkil qilgan bo'lsa, 2007-2017 yillarda 4,9-5,8%ni, oxirgi yillarda esa 9,0-10,5% ni tashkil etmoqda[2]. Ayniqsa pandemiya (COVID-19) bilan bog'liq vaziyat aholining ish jarayoniga, oilalarning daromadiga ham ta'sir ko'rsatdi. Pandemiya paytida 2019 yilga nisbatan ishsizlik darajasi 1,5%ga o'sgan. Viloyatlar kesimida ishsizlik darajasi 2021 yilda eng yuqori bo'lgan hududlar – Qashqadaryo, Surxondaryo (11,1%), Jizzax va Samarqand (11,0%) viloyatlari, eng past ko'rsatkich esa Toshkent shahrida kuzatilgan bo'lib 8,0% ni tashkil qiladi. Statistika qo'mitasining bergan ma'lumotiga qaraganda, 2019 yil xorijiy mamlakatlardan ko'chib kelganlar 2527 ming kishini tashkil qiladi va ularning asosiy qismi qo'shni respublikalardan kelgan migrantlar hisoblanib, Qozog'iston 33,2 %, Rossiya Federatsiyasi 23,3 %, Tojikiston 21,4 % va Qirg'iziston 12,1 %ni tashkil qiladi. Aksincha, chet elga ketgan migrantlar 13246 ming kishini tashkil qilgan holda, Qozog'istonga 57,5%i, Rossiya Federatsiyasiga 37,7% va AQSHga 0,8% ko'chib ketgan. Bundan shuni xulosa qilish joizki, ko'chib kelganlarga nisbatan ko'chib ketganlar miqdori 5 barobar yuqoridir.

BMTning statistik ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonning 2040 ming nafar fuqarosi yoki jami mehnatga layoqatli aholisining 12 % xorijda ishlaymoqda. Yuqorida keltirilgan fikrlarning isboti sifatida, ushbu mehnat migrantlarining hududlar kesimini ko'radigan bo'lsak, eng ko'p migrantlar:

Samarqanddan - 268 ming kishi, Farg'onadan - 247 ming kishi, Qashqadaryodan - 178 ming kishi va Surxondaryo viloyatidan - 167 ming kishi ekani ma'lum bo'ldi (rasm).



Rasm. Mehnat migrantlarining hududlar bo'yicha taqsimlanishi (2021 yil, ming kishi hisobida)

Manba: statistik ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

O'rganishlar doirasida amalga oshirilgan tahlillar mehnat migratsiyasi ishtirokchilarining ijtimoiy-demografik tarkibi, mehnat migratsiya jara-

yonlari omillari, yo'nalishlari, geografiyasini aniqlash, migrantlarning xorijdagi yashash, mehnat sharoitlari, daromadlarini baholash, ularning kelgusi

rejalari, o'zlari yashaydigan joydagi ish topish imkoniyatlari xususidagi, mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish yuzasidan fikr va takliflarini o'z ichiga olgan. Ta'kidlash joizki, mehnat migratsiyasi jarayonlarida yoshlar va ayollarning ishtirokini alohida o'rganish maqsadida o'rganishlar doirasida mazkur guruhlarini mumkin qadar kengroq qamrab olish vazifasi qo'yilganligi bois, migrantlar tarkibida ularning ulushi oldingi yillarda o'tkazilgan o'rganishlarga qaraganda bir qadar oshishiga sabab bo'ldi.

Xulosa va takliflar. O'z navbatida migratsiyaning muammo va kamchiliklari ham yo'q emas. Mamlakatimiz hududidan amalga oshirilayotgan tashqi migratsiyaning xavfsizlik, mehnatning qonuniy jihatdan himoya qilinishi masalalari ham mavjud. Shu tufayli ham mehnat migratsiyasi o'ziga xos xususiyatga egadir.

Migratsiyaning ijobiy bo'lgan jihatlari:

- Mamlakatning ishsizlik darajasi kamayishiga, shuningdek, ishsiz aholining ish bilan ta'minlanishi turli ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning bartaraf etilishiga olib keladi.
- Mehnat migratsiyasi, donor mamlakatning – davlat byudjetiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
- Qabul qiluvchi mamlakat arzon ishchi kuchiga ega bo'ladi.

- Migrantning oila daromadlari oshishiga hamda turmush sharoiti yaxshilanishiga sabab bo'ladi.

- Yangi ish, yangi muhit migrantlarning ish tajribasi va dunyoqarashiga ta'sir qiladi.

Mehnat migratsiyasining salbiy jihatlari:

- Mehnat migrantlarining uzoq vaqt uyda bo'lmashligi uning oilaviy ajrimlar ko'payishiga sabab bo'ladi.
- Har yili davlat mehnatga layoqatli aholisining ma'lum bir qismini yo'qotadi.
- Agar mamlakat mehnat migrantini haddan tashqari ko'p qabul qilinsa, davlat byudjetining katta qismi mehnat migratsiyasi tufayli "tashqariga" chiqib ketadi.
- Immigrant mamlakatda mehnat migrantlarining ko'payishi ishchi kuchiga bo'lgan taklifning o'sishiga, talabning esa kamayishiga olib keladi.
- Mehnat migratsiyasi ko'payishi turli diniy, milliy, irqiy nizo va kelishmovchiliklarni yuzaga keltiradi.
- Va albatta, mehnat migratsiyasi tufayli mamlakat aholisining soni, tarkibi, demografik jarayonlari o'zgarishi, yangi nikoh va oilalarning ko'payishiga olib keladi.

Manba va foydalangan adabiyotlar:

1. Каланов К. Особенности миграционных процессов в Узбекистане. //Материалы второго конгресса социологов тюркоязычных стран на тему Гражданское общество и социальных процесс в XXI веке. – Алматы. 2008.
2. Абдурахмонов Қ.Х. "Меҳнат иқтисодиёти назария ва амалиёт" Т.: "ФАН" Нашриёти – 2019 й.
3. Воробьев О.Д., Топилина А.В. Миграция населения: теория и политика. Учебное пособие. -М.: 2012г.
4. Каланов К. Внутренняя миграция на неформальном рынке труда в Узбекистане.// Россия – Узбекистан:история и современность (ч.2). / ЕвроАзия. – Москва. № (Июнь) / 2008.
5. Максакова Л.П. Миграция и рынок труда в странах Средней Азии. – Ташкент,2002.
6. Нодирова Н. O'zbekiston aholisining migratsion jarayonlaridagi ishtiroki (muammo va yechimlar). BML. – Samarqand. 2015.
7. Современная демография /Под ред. Кваша А.Я., Ионцева В.А. - М.:
8. Bozkarauli A. Migratsiya jarayonlarini tartibga solishning mintaqaviy va milliy xususiyatlari. – Qarag'anda. 2012.
9. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi
10. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi rasmiy sayti.
11. www.migration.uz – Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi rasmiy sayti.
12. www.press-club.uz – O'zbekiston Respublikasi Xalqaro press klubi rasmiy sayti.
13. Махмудов С. (2022). Роль системы логистики в развитии экспорта страны. // Экономика и образование, 23(Maxsus_son), 504–519. извлечено от <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/699>
14. Махмудов, С. (2022). ОЦЕНКА РОЛИ СФЕРЫ ЛОГИСТИКА В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ. Экономика и образование, 23(4), 296–307. извлечено от <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/600>



O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TARTIBGA SOLISHNING INSTITUTSIONAL MUHITI

Doniyorova Fotimabonu Alisher qizi -
PhD doktorant TDIU

https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss6/a31

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda yoshlar bandligini tartibga solishning institutsional muhiti ko'rib chiqilib, O'zbekistonda mehnat bozorini rivojlantirishning quyidagi asosiy muammolari – yoshlar mehnat bozorida bandlik siyosati samaradorligini o'lchash uchun milliy ko'rsatkichlarning yo'qligi; ba'zan kerakli darajada o'zaro ta'sir qilmaydigan ta'lim va mehnat bozorlarining mavjudligi; mamlakatimiz ilmiy salohiyatining sustligi, aholining oliy ta'lim bilan kam qamrab olinganligi, O'zbekiston Respublikasida yoshlarni ish bilan ta'minlash muammolarini hal etish yo'llari keltirilgan.

Kalit so'zlar: bandlik, mehnat, ishchi kuchiga talab va taklif, yoshlar mehnat bozori, ta'lim, ma'rifat, fanni rivojlantirish, davlat byudjeti, yoshlar daftarchasi.